

ZAMONAVIY OILADA ER-XOTIN MUNOSABATLARINI IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK
MEXANIZMLARI

A.Abdullayeva

Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada zamonaviy oilada er - xotin munosabatlarini ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda oilaviy baxt yoki kelishmovchiliklar to'g'risida ijtimoiy tasavvurlarning shakllanganlik darajasi undagi ma'naviy muhit va oila a'zolarining sog'lom fikrlashi darajasiga bog'liq ekanligi haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Oila, munosabat, ijtimoiy, mexanizm, shaxs, muloqot, psixologik, zamonaviy, majburiyat, nizo.*

Аннотация: *В данной статье в исследованиях, посвященных изучению социально-психологических механизмов супружеских отношений в современной семье, степень сформированности социальных представлений о семейном счастье или разногласиях зависит от духовной среды и уровня здорового мышления семьи. информация предоставлена участникам.*

Ключевые слова: *Семья, отношения, социальное, механизм, личность, общение, психологическое, современное, обязательство, конфликт.*

Annotation: *In this article, in the studies devoted to studying the socio-psychological mechanisms of husband-wife relations in the modern family, the degree of formation of social perceptions about family happiness or disagreements depends on the spiritual environment and the level of healthy thinking of family members. information is provided.*

Key words: *Family, relationship, social, mechanism, person, communication, psychological, modern, commitment, conflict.*

Uy-ro'zg'or yumushlarini ado etish, er-xotinlik burchlari, ota-onaning farzandlar oldidagi majburiyatlari, farzandlarning kattalar oldidagi huquq va burchlarini ado etish jarayonida murakkab rollararo muomala va muloqot jarayonlari kechadiki, ularning deyarli barchasida shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar to'qnashadi, ayrim xolatlarda fikr va qarashlardagi ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar, kelishmovchiliklar, anglashilmovchiliklar shaxslararo nizolar tarzida namoyon bo'ladi. Oilaviy muammolar qizining ko'p qirraliligi bilan alohida xususiyat kasb etib, jamiyat taraqqiyotini belgilashda, ma'nan barkamol, ruhan sog'lom avlodni voyaga yetkazish jarayonida ularning ijobiy yechimi katta ahamiyatga egadir. Agar har bir oilani tashkil etuvchilar o'z muammolarini bahamjig'atlik bilan, o'zaro kelishuv asosida hal qilsalar, oiladagi tinchlik kafolatlanib, uning ma'naviy asoslari mustahkam bo'ladi. Alohida ta'kidlash joizki, er-xotin, qaynona-qaynota, kelin-kuyov munosabatlarida, fikrlar va qarashlardagi paydo bo'ladigan ayrim kelishmovchiliklar, qarama-qarshiliklar, ziddiyatlarni uni tashkil etuvchi shaxslar o'zaro kelishib, muammoni konstruktiv

tarzda yechishga qodir bo'lsalar, oiladagi ijtimoiy-psixologik hamda ma'naviy muhit yosh avlod ongida insoniy munosabatlar to'g'risida teran va ijobiy tasavvurlar shakllanishiga imkon beradi. Shu bois ham mamlakatimizda oila va uning tarbiyaviy imkoniyatlari qadriyat sifatida yuksaklarga ko'tariladi.

Yosh oilalarda er-xotin munosabatlari o'ziga xos hududiy, etnik, jinsiy, yosh va individual psixologik xususiyatlarga ega bo'lgan er-xotin munosabatlari shakllanishining eng nozik va hal qiluvchi shakli hisoblanadi. U yoki bu yosh oilaga xos bo'lgan er-xotin munosabatlari boshqa bir er-xotonga mos kelmasligi mumkin. Chunki yosh oilani yuzaga keltirgan er-xotinlar turli xil shaxslararo munosabatlar tizimi, turlicha taomilga ega bo'lgan oilalarda tarbiyalangan, shaxs sifatida shakllangan individlardan tashkil topadi. Lekin shunga qaramasdan maxsus psixologik tadqiqotlarda va ulardan olingan natijalar asosida yozilgan ilmiy psixologik adabiyotlarda yosh oilalarda er-xotin munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishining umumiy mexanizmlarga oid tegishli ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Umuman yosh oilalarda er-xotin munosabatlarining qay tarzda rivojlanishi avvalo shu yosh oilaning yuzaga kelishiga asos bo'lgan nikoh oldi omillarining xarakteriga, shu oilalarning yuzaga kelish shart-sharoitlari bilan uzviy bog'liqdir. Bular haqida oldingi mavzuda qisman to'xtalib o'tdik.

Albatta, yosh oila yuzaga kelar ekan, ular bir-birlarini sevib turmush qurishganmi, qarindosh-urug'chilik, tanish-bilishchilik, sovchilik, hisob tufaylimi yoki stereotip bo'yichami, qanday bo'lishidan qat'i nazar nikohning ilk kunlarida ularning bir-birlariga nisbatan bo'lgan o'zaro munosabatlarida, er-xotin o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarda emotsional ko'tarinkilik, hissiy rang-baranglik darajasi yuqori bo'ladi. Bir-birlarini ma'lum bir muddat sevishib oila qurgan juftlarda bunday emotsional ko'tarinkilik darajasi nihoyatda yuqori bo'ladi. Chunki ular bir necha yil kutib, intilib yashagan, visol damlariga nihoyat yetishgan bo'ladilar. Bunday juftlar nikohi boshida er-xotin o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarda ko'tarinkilik, bir-birlariga emotsional intilish juda yuqori darajada bo'ladi. Nafaqat sevishib oila qurganlar, balki deyarli barcha motivlarga ko'ra oila qurgan yoshlarda ham nikohning boshida er-xotin o'zaro munosabatlarida bir-biriga yaqinlik, bir-birini qadrlash, hurmat qilish nisbatan yuqori bo'ladi.

Ma'lumki, Islom dinining muqaddas manbaalaridan bo'lmish Qur'on va Hadislarda ham odob-axloq, ayollarning turmushdagi o'rni va vazifalari, er va xotin o'rtasidagi munosabatlar, bolalar tarbiyasi, oila yuritish, nikoh va muhabbat masalalariga keng o'rin berilgan. Quyida hadislar to'plamidan bir necha misollar keltiramiz: «Tangri nazdida bandalarning eng yaxshisi o'z ahli-ayoliga foydasi ko'p tegadigan kishidir» (18-xadis), «Odamlar ichida xotin kishiga nisbatan xaqlirog'i uning eridir. Erkak kishiga nisbatan odamlarning haqlirog'i - bu uning onasidir» (34-xadis); «Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilangiz» (38-xadis); «Qachonki er o'z xotiniga va xotin o'z eriga qarashsa, Tangri ham ularga rahmat nazari bilan qaraydi, bordiyu kaftini kaftiga qo'ysa, barmoqlari orasidan gunohlari duv-duv to'kiladi» (44-xadis); «Sizlarning har biringiz bamisoli cho'pondirsizlar va o'z

qo'l ostingizdagilarga mas'uldirsizlar. Podshoh o'z fuqarolariga, er o'z ahli ayoliga, xotin erining uyiga, xodim o'z xojasi moliga, farzand o'z otasi mulkiga mas'uldir. Demak har birlaringiz mas'uldirsizlar» (116-xadis); « Hech bir ota o'z farzandiga xulqu odobdan buyukroq meros berolmaydi, (136-xadis). Keltirilgan namunalardan ko'rinadiki, demak diniy manbalarda ham oilaning muqaddas ekanligi, erkak va ayollarning oila oldidagi burch va mas'uliyatlari, ota-onaning bola va o'z navbatida farzandning ota-onasi oldidagi vazifalari, erning xotiniga hurmat va e'zoi muqaddas qadriyatlar sifatida qaralgan ekan.

Agar xalq episi va diniy risolalar odamlarda og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga ko'chib saqlanib kelgan bo'lsa, xalqning eng donishmandlari va olimlari o'z qimmatli fikrlarini xalq an'anasiga tayangan holda o'z asarlarida yoritib, ularni kelgusi avlodlar uchun qoldirganlar, shunday faylasuf-olimlardan biri Abu Nasr Forobiydir. Uning inson kamoloti, baxti, ta'lim va tarbiyasi, umuman axloqi, dinga munosabati haqidagi qarashlari umumfalsafiy qarashlar va tushuntirishlardan iborat o'git bo'lib, axloq nazariyasini boyitdi. Uning ta'limotlarida keltirilishicha, haqiqiy baxt bir odamning boshqasiga nisbatan g'ayirligi, zulmi yo'qolgandagina bo'ladi, oila a'zolarining bir-birlariga samimiy munosabatlari, mehru oqibatlar esa ana shu oiladagi odamlarning baxtini tashkil qiladi. Bundan tashqari, har bir ota-onaning o'z farzandlari uchun birlamchi ustoz, yo'l ko'rsatuvchi ekanligi va aynan ular bolada ta'lim-tarbiyaga kerakli tayyorgarlik holatini shakllantirish ta'siriga ega ekanligi to'g'risidagi xulosalar mutafakkir qarashlarining hozirgi kunlar uchun ham naqadar ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi.

Oilaviy shaxslararo munosabatlar barqarorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim omillar va ularning baholanishi o'zbek oilalarining shaxslararo munosabatlari barqarorligini ta'minlovchi omillarni ahamiyatini aniqlash bo'yicha er-xotinlar (100 nafar) bilan o'tkazilgan anketa so'rovining natijalari 1-jadvalda berildi.

1-jadval

№	Omillar	Rang 1,2,3,4,5 o'rni	Foiz
1.	Oilaning moddiy ta'minlanganligi	1,40	92%
2.	O'zaro hurmat va ishonchning bo'lishi	1,20	96%
3.	Oila a'zolarining bir-birlarini yaxshi tushunishlari	1,25	95%
4.	Mustaqil oila sifatida hayot kechirish	3,55	49%
5.	Uy-joy bilan ta'minlanganlik	2,40	72%
6.	Farzandlar	1,25	95%
7.	Oila a'zolarining onglilik va ma'naviy axloqiy mavqei	1,40	92%
8.	Muomala odobi	1,35	93%
9.	Oilada mehnat taqsimoti	2,00	80%
10.	Jinsiy moslik (jinsiy qoniqish)	2,30	74%
11.	Qaynота va qaynonaning oilani boshqarishga aralashuvi	3,05	59%
12.	Qayn-aka, qayn-uka, qayn-opa va qayn-singillarning oilaviy munosabatlardagi ishtiroki	3,95	41%

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, er-xotinlar oilaviy shaxslararo munosabatlarning barqarorligini ta'minlashda «o'zaro hurmat va ishonchning bo'lishi» ni eng ta'sirchan (muhim) omil deb hisoblaydilar (o'rinlar yig'indisi 1,20; 96%). Darhaqiqat, er-xotin o'rtasidagi o'zaro hurmat-ehtirom, mehr-muhabbat, ishonch va sadoqat, izzat-ikrom, hamfikrlilik va munosabatlarning samimiyligi oila mustahkamligini ta'minlashning eng muhim asoslari bo'lib xizmat qiladi. Har bir millatning tarixan shakllangan o'zining oilaviy hayoti, turmush tarzi bor. Oilaviy turmushda er bilan xotinning vazifasi va burchlariga oid qadriyatlar mavjud. Er yoki xotinning mazkur qadriyatlarni yetarli darajada o'zlashtirmaganligi yoki ado eta olmasligi ular orasidagi o'zaro hurmat, sadoqat va ishonchning asta-sekin so'nishiga va oilaviy turmush aksil holatlarning shakllanishiga sharoit yuzaga keltiradi. Er-xotinlar o'rtasida «o'zaro hurmat va ishonchning bo'lishi» ga alohida e'tibor bilan qaraganlik ijobiy natijalarga olib keladi.

Shuningdek, "Oila a'zolarining bir-birlarini yaxshi tushunishlari" ham (o'rinlar yig'indisi 1,25; 95 %) o'zbek oilalari uchun eng muhim qadriyat sifatida tan olindi. Shaxs psixologiyasining tahlillari va xulosalariga ko'ra, shaxslilik sifat-fazilatlarini yuksak darajada shakllangan insonlargina (shu jumladan oila a'zolari ham) bir-birlarini to'g'ri tushuna oladilar, bir-birlariga hamfikr, hamjihat, hamkor, kamchiliklar yoki xatoliklar o'tganda kechirimli, sabr-qanoatli, itoatli, kengashib ish tutadigan, oilaviy muammolar yechimini tez topib, oila totuvligi, farovonligi va ravnaqi yo'lida ishonch bilan qat'iy dadil ish ko'radilar. Ayniqsa, oilaviy turmushda bir-birlarini to'g'ri tushunishga intilish, maslahatlashib-kengashib ish tutish, o'zaro hurmat va mehr-oqibatlik, ezgu istaklar sari faollik o'zbeklarga xosdir. Har bir oila ijtimoiy tizim strukturasi sifatida jamiyat oldida ma'lum bir vazifalarni bajaradi. Oilaning ijtimoiy vazifalari haqida gapirganda, bir tomondan jamiyatning oilaga ta'sirini, ikkinchi tomondan esa umumiy ijtimoiy tizimda oilaning o'rnini, oilaning hal qiladigan ijtimoiy (jamoatchilik) vazifalarini hisobga olish lozim.

Oilaviy turmushning muhim muammolari, undagi shaxslararo munosabat masalalari, uning barqarorligi va uni ta'minlashni ijtimoiy psixologik omillari borasida nazariy va empirik tadqiqot natijalarini tahlil qilish bizni quyidagi xulosalarga olib keldi:

1. Mavzuga daxldor deb o'rganib chiqilgan nazariy-metodologik va ilmiy manbalarda oilaviy turmushning muhim muammolari, er-xotin munosabatlaridagi zarur axloqiy sifat va fazilatlar, er-xotinning burch va vazifalari, ota-onaning bolalar kamolotdagi, xo'jalik yuritishdagi mas'uliyati, oila va nikoh mezonlarining amaliyligi, hayotiyliigi, sharq xalqlaridagi, xususan o'zbeklardagi oilaviy munosabatlarning o'ziga xosligi va boshqa tomonlariga katta e'tibor berilgan.

2. O'rganib chiqilgan tarixiy, nazariy-metodologik va ilmiy manbalarda oila muqaddas, inson kamoloti, jamiyat taraqqiyoti va barqarorligini ta'minlaydigan ijtimoiy institut ekanligiga alohida e'tibor berilgan.

Oila hayoti, oila va nikoh masalalarining ijtimoiy-tarixiy shakllanish jarayonlari o'zgarib borishi va hozirgi davr talabiga mos oilaviy turmush tarzi va undagi muammolar keng o'rganilgan.

3. Oilaviy turmush muammolari nafaqat bugungi kunda va hatto qadim-qadimdan ham jamiyatning ilg'or kishilari: ulamolar, mutafakkirlar, ziyoliyu-olimlarini qiziqtirgan va muammoyu, sir-sinoatlarga boy ijtimoiy turmushning ustuvor sohasi sifatida o'rganib kelingan.

ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаева А. ЁШЛАРНИ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ИЖТИМОЙПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ //IJODKOR O'QITUVCHI. – 2023. – Т. 3. – №. 30. – С. 467-473.

2. Абдуллаева, А. "ЁШЛАРНИ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ИЖТИМОЙПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ." IJODKOR O'QITUVCHI 3.30 (2023): 467-473.

3. Abdullaeva A. PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE IMPACT OF INTERPERSONAL RELATIONSHIPS IN THE FAMILY ON THE CHILD'S PSYCHE //Теория и практика современной науки. – 2021. – №. 5 (71). – С. 3-6.

4. Abdullaeva, A. "PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE IMPACT OF INTERPERSONAL RELATIONSHIPS IN THE FAMILY ON THE CHILD'S PSYCHE." Теория и практика современной науки 5 (71) (2021): 3-6.

5. Abdullaeva, A. (2021). PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE IMPACT OF INTERPERSONAL RELATIONSHIPS IN THE FAMILY ON THE CHILD'S PSYCHE. Теория и практика современной науки, (5 (71)), 3-6.

6. Abdullayeva A. YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA PSIXOLOGIK OMILLAR //IJODKOR O'QITUVCHI. – 2023. – Т. 3. – №. 33. – С. 49-54.

7. Abdullayeva, A. "YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA PSIXOLOGIK OMILLAR." IJODKOR O'QITUVCHI 3.33 (2023): 49-54.

8. Abdullayeva, A. (2023). YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA PSIXOLOGIK OMILLAR. IJODKOR O'QITUVCHI, 3(33), 49-54

9. Абдуллаева А. Р. ОИЛА ФУНКЦИЯЛАРИНИ ОТА-ОНА ВА ФАРЗАНД МУНОСАБАТЛАРГА ТАЪСИРИНИ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 160-164

10. Абдуллаева, Арофатхон Рустамовна. "ОИЛА ФУНКЦИЯЛАРИНИ ОТА-ОНА ВА ФАРЗАНД МУНОСАБАТЛАРГА ТАЪСИРИНИ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ." Educational Research in Universal Sciences 2.6 (2023): 160-164.

11. Абдуллаева, А. Р. (2023). ОИЛА ФУНКЦИЯЛАРИНИ ОТА-ОНА ВА ФАРЗАНД МУНОСАБАТЛАРГА ТАЪСИРИНИ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ. Educational Research in Universal Sciences, 2(6), 160-164.

12. Rustamovna A. A. Socio-Psychological Factors Influencing The Family Environment In The Patriotic Upbringing Of Future Military Personnel //Conference Zone. – 2022. – С. 43-45. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 3 ISSUE 2 FEBUARY 2024 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ 49

13. Rustamovna, Abdullaeva Arofat. "Socio-Psychological Factors Influencing The Family Environment In The Patriotic Upbringing Of Future Military Personnel." Conference Zone. 2022.

14. Rustamovna, A. A. (2022). Socio-Psychological Factors Influencing The Family Environment In The Patriotic Upbringing Of Future Military Personnel. In Conference Zone (pp. 43-45